

HISSİY KONSEPTLARNING LINGVOKOGNITIV MOHIYATI VA ULARNING METAFORIK MODELLASHTIRILISHI

Ashurbayeva Sarvinoz Xolmirza qizi

Qo'qon davlat universiteti

O'zbek tili kafedrası 1-bosqich PhD tayanch doktoranti

10.00.11 - Til nazariyasi.

Amaliy va kompyuter lingvistikasi ixtisosligi

sarvinozashurbaeva@gmail.com

Annotatsiya: Hissiy konseptlarning lingvokognitiv mohiyati va ularning metaforik modellashtirilishi o'zaro chuqur bog'liq, ko'p qatlamli va murakkab jarayon bo'lib, zamonaviy lingvistika, kognitiv fanlar hamda falsafaning asosiy tahlil maydonlaridan biriga aylangan. Hissiy konsept deganda inson ruhiyatidagi chuqur tuyg'ular, emotsional holatlar, notranik kechinmalar va ularning til orqali in'ikos etilishini umumlashtiruvchi kognitiv birliklar tushuniladi. Hissiy konseptlarning shakllanishi, dunyoni idrok qilish jarayonida ulardan foydalanish, ularni til orqali ifodalash va madaniy kontekstdagi namoyon bo'lishi inson tafakkuri, til va jamiyat o'rtasida doimiy interaktiv aloqadorlikni tasdiqlaydi.

Kalit so'zlar: hissiy konseptlar, metaforik modellashtirish, til, ifoda, muloqot, lingvistika, falsafa, lingvokognitiv mohiyat, hissiyotlar, emotsiya, tafakkur.

Hozirgi zamon fanida inson ongini chuqurroq anglash, ruhiy holatlarni tahlil qilish hamda ijtimoiy hayot jarayonlarini o'rganishda hissiy konseptlar muhim o'rinni egallamoqda. Hissiy konseptlar deganda inson tuyg'ulari, emotsiyalari va ular bilan bog'liq tasavvurlar jamlanmasi tushuniladi. Ular o'zida nafaqat hissiy kechinmalarning ma'no-mohiyatini, balki ushbu hislarning inson faoliyatidagi o'rnini, jamiyat munosabatlariga ta'sirini va madaniy qadriyatlarda aks etishini mujassam etadi. Har bir jamiyat yoki shaxs o'zining kundalik faoliyatida, qarorlar qabul qilishda, o'zaro muloqotda, hayotga munosabatda albatta ayrim hissiy konseptlarga asoslanadi. Hissiy konseptlar tabiatan juda murakkab, ko'p o'lchovli hodisa bo'lib, ular tilga, tafakkurga,

madaniyatga va hatto ijtimoiy munosabatlarga chambarchas bog‘liqdir. Insonning baxt, g‘am, quvonch, zavq, umid, hasad, g‘azab kabi tuyg‘ulari ongimiz va xotiramizda muayyan obrazli shakllar, ramzlar va tasavvurlar ko‘rinishida mujassam bo‘ladi va ularni idrok qilish, anglash hamda ifodalashda hissiy konseptlarning roli alohida ahamiyat kasb etadi. Ana shu konseptlar orqali inson o‘z his-tuyg‘ularini so‘z, harakat yoki obraz vositasida namoyon etadi, atrofida bilan emotsional rishtalarni shakllantiradi hamda o‘z ichki kechinmalarini boshqaradi. Hissiy konseptlar tildan tashqari hayotimizning turli jabhalarida — oilaviy munosabatlarda, kasbiy faoliyatda, madaniyatda, san’atda, adabiyotda, kommunikatsiyada va boshqalarda beqiyos ahamiyat kasb etadi. Hissiy konseptlarsiz inson shaxsiyatining shakllanishi, axloqiy qadriyatlar egallanishi, ijtimoiy hayotda muvaffaqiyatga erishish yoki salbiy vaziyatlarni yengib o‘tish mumkin emas. Chunki aynan hissiy konseptlar inson ruhiyatini to‘ldiradi, uning jamiyatdagi tutgan o‘rnini va o‘ziga bo‘lgan munosabatini belgilab beradi. Shunday ekan, hissiy konseptlarni o‘rganish, ular qanday shakllanadi, qaysi omillar ta’sirida rivojlanadi, qaysi tilda va qaysi madaniyatda qanday tarzda namoyon bo‘ladi, inson hayotida qanday funksiyalarni bajaradi — bu kabi masalalar bugungi kundagi ko‘plab ilmiy tadqiqotlarning diqqat markazida bo‘lib qolmoqda. Hissiy konseptlar insoniyatning umumiy va individual tajribasi, uning ruhiy boyligi, hayotga bo‘lgan munosabati va shaxsiy o‘shida ajralmas vosita sifatida eng dolzarb mavzulardan biridir. Shu bois, hissiy konseptlarni chuqur ilmiy tahlil qilish, ularni kundalik hayotga tadbiiq etish hamda har tomonlama o‘rganish orqaligina inson idroki, muloqoti va madaniy taraqqiyotining muhim tomonlarini anglash mumkin bo‘ladi.

Lingvokognitiv mohiyat hissiy konseptlar va ularning asosida yotadigan bilimlar majmuasi, emotsional tajriba, individuallik hamda umumjamiyatga oid xarakterli xususiyatlarning umumlashtirilgan semantik sistemasida aks etadi. Til orqali mavjud bo‘lgan har bir hissiy birlik aslida inson tafakkurining mahsulidir, ya’ni real va ichki olamdagi emotsional tajribani abstrakt hamda modellashtirilgan shaklda anglash va tasvirlashga xizmat qiladi. Kognitiv lingvistika nuqtai nazaridan, har qanday til birliklarining ortida inson idroki, mental xaritalash va konseptual poydevor yotadi.

Hissiy konseptlar – bu inson ongida baqirlashgan, hayotiy va madaniy-tarixiy tajribaning muayyan semantik va obrazli tashkilotchisiga aylangan kognitiv strukturalardir. Mazkur konseptlarning lingvokognitiv mohiyatini chuqur anglash uchun birinchi navbatda hissiyot, kechinma va emotsiyani farqlash, ularning idrok, til va tafakkurdagi aks etish mexanizmlarini ko‘rib chiqish muhim ahamiyatga ega. Hissiyotlar inson ongi uchun asosiy sub’ektkli tajriba bo‘lib, ular idrok, xotira, ijtimoiy muhit, bevosita shaxsiy hatti-harakatlar va dunyoni anglash natijasida yuzaga keladi. Har bir emotsional holat til orqali asosiy konseptual modelga aylanar ekan, o‘ziga xos metaforik va allegorik modellashtirish jarayonidan o‘tadi. Bu jarayon ongdagi hissiy holatlarning abstrakt shakldan ifodaga ko‘chish mexanizmi sifatida namoyon bo‘ladi.[1]

Metafora asosida modellashtirilgan hissiy konseptlar tejribaga asoslangan kognitiv jarayonlar mahsuli sifatida qaraladi. Tilshunoslikda “hissiy metafora” tushunchasi inson ongi, idroki va tilining o‘zaro bog‘liqligini ko‘rsatadi. Hissiy holatlarning tilda metaforik tarzda ifodalanishi yuzasidan asosiy jarayon shundaki, hissiyotlar bevosita idrok qilinmaydigan, abstrakt fenomenlar bo‘lib, ular tilda ko‘pincha boshqa, aniq va tasavvur qilinadigan muqobil realliklar orqali aks ettiriladi. Bu esa inson ongi tomonidan hissiy holatlarni idrok qilishni yengillashtiradi, ularni konseptlashtirib, aniq mental obektga aylantiradi. Lingvokognitiv taxlil uchun, har bir hissiy konseptning semantik va psixologik mazmunini, til strukturasidagi ifoda shaklini va konseptual maydonini aniqlash alohida ahamiyat kasb etadi. Har bir hissiy konsept o‘ziga xos semantik maydonda mavjud bo‘lib, ontologik asosga ega. Shu asosda hissiy konseptlarning til sistemasidagi joyi, ularning mental strukturadagi sxemalari, tasavvurdagi asosiy elementlar va ularni modellashtirishda foydalaniladigan obrazli mexanizmlar shakllanadi. Lingvistika bu jarayonni o‘rganishda semantik maydon, asosiy, ikkilamchi, periferik va markaziy zona tushunchalariga suyanadi.[2]

Lingvokognitiv yondashuv hissiy konseptlarni ontologik negizga ega, ko‘p qatlamli va polisemantik birlik sifatida chorlaydi. Bunda konseptlar inson tafakkurining asosiy bo‘lagiga aylanib, ham tilda, ham idrokda, ham ijtimoiy

tafakkurda bevosita namoyon bo‘ladi. Har qanday hissiy metafora esa, bir tomondan real his-tuyg‘ular dunyosini modellashtiradi, ikkinchi tomondan ularni aniq obrazlarda umumlashtirib, organik tarzda lingvistik sistemaga joylashtiradi. Bu jarayon ong uchun ko‘rinmas bo‘lsada, har bir til foydalanuvchisi uchun u doimiy va an’anaviy usulga aylangan. Metaforik modellashtirilish hissiy konseptlarning tildagi asosiy namoyon bo‘lish shakli sifatida e’tirof qilinadi. Mazkur jarayon bir nechta asosiy yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi; avvalo, hissiy holatlarni moddiy, aniq, seziladigan objektsifat vositalar orqali ifodalash; ikkinchi yo‘nalish esa hissiy konseptlarni makon va harakat sohasiga ko‘chirib, ular uchun harakat, o‘shish, yurish, o‘shish yoki yo‘qolish singari qayd etiladigan metaforalarni yaratishdir. Shuningdek, kognitiv metaforalarda hissiy holatlar ko‘pincha rang, yorug‘lik, og‘irlik, harorat kabi asosiy tasavvurlar yordamida modellashtiriladi.[3]

Hissiy konseptlarning lingvokognitiv mohiyatini aniqlashda, ayniqsa, ularning mental modelini shakllantiruvchi asosiy kuch sifatida konseptual integratsiya ham muhim o‘rin tutadi. Integratsiya jarayonida turli obrazlar, semantik maydonlar va konseptual sxemalar bir-biriga o‘xshash yoki ziddiyatli tarzda birlashtirilib, inson ongi uchun yaxlit manzara hosil qiladi. Lingvistik ifoda bu manzara asosida vujudga kelib, tilda metaforik, allegorik, frazeologik yoki boshqa tarzda namoyon bo‘ladi. Demak, hissiy konseptlarning lingvokognitiv mohiyati va ularning tildagi aks etish jarayonini tushinishda ana shu konseptual integratsiya va mental xaritalash jarayonlari diqqat markazida bo‘lishi zarur. Konseptual modellashtirilishda tildagi har bir birlik, har bir frazeologik vosita, ayniqsa, hissiy holatlar ramzi sifatida e’tirof etiladigan metaforalar kognitiv sohada asosiy qismga aylanadi. Har bir metafora inson ongi, idroki va til tajribasining umumlashtirilgan modelidir. Bu model orqali insonlar faqatgina o‘z emosional holatlarini emas, balki ijtimoiy, madaniy, shaxsiy tajribalarini ham uzluksiz tarzda tasvirlab, kodekslash imkoniga ega bo‘ladilar. Tildagi metaforik sistemaning o‘ziga xosligi va boyligi esa xalq ruhiyatida naqadar ko‘p marotaba hissiy tajribalar yashashini, ularning idrokda mustahkam o‘rnashishini tasdiqlaydi. Metaforik modellashtirish psixologik jihatdan ham muhim. Chunki inson ongi hissiy konseptlarni

bevosita idrok qilib, yanada qabul qilinishi oson bo'lgan muayyan model – metafora orqali tez anglaydi. Bu jarayon kodlash va diskodlash mexanizmi doirasida ro'y berib, har bir na'munaviy hissiy konsept o'ziga xos mental modelga muvofiq tilda in'ikos topadi. Emotsional holatlarni ko'proq abstrakt ko'rinishda ifodalash hohishi, til orqali unga aniq, yaratilmish, oddiy va tanish obrazlar orqali shakl beriladi. Har bir xalq madaniyatida asosiy hissiy konseptlar uchun alohida metaforalash usullarining mavjudligiga katta e'tibor qaratiladi.[4]

Kognitiv tilshunoslik sohasida hissiy konseptlar ko'p bosqichli, strukturali, markaziy va periferik komponentlarga ega bo'lgan, umumiy va xususiy ketma-ketliklarda muloqotga kirishadigan birliklar sifatida qaraladi. Ularning doimiy metaforik modellashtirilishi esa – inson ongi uchun o'ziga xos nafaqat emotsional, balki intellektual, ma'naviy va ijtimoiy orientir sifatida ham amal qiladi. Bu til va tafakkur o'rtasidagi kuchli bog'liqlik, tilning nafaqat kommunikativ, balki konseptual, kognitiv va modellovchi sifatlarining o'zaro birligi tufayli yuzaga keladi. Hissiy konseptlar emotsional sohaning, ijtimoiy ong va xotiraning, shaxs individualligi va psixologik jarayonlarning yuksak mahsuli sifatida ham talqin qilinadi. Til, tafakkur va madaniyat munosabatida vujudga kelgan har bir hissiy konsept, o'z navbatida, til tizimi, madaniyat va jamiyat yaxlitligidagi muhim bir yaratuvchanlik elementiga aylangan. Tilning mazmun boyligi hissiy konseptlarning ko'pligi va ularning modellashtirishdagi boy tajribasidan dalolat beradi. Shuning uchun ham lingvokognitiv mohiyat va metaforik modellashtirish kategoriyalari o'zaro uzoq va sof nazariy emas, balki hayotga yaqin, real kommunikativ jarayonlar mahsuli sifatida har bir til va madaniyat doirasida asosiy tahlil manbai hisoblanadi.[5]

Xulosa:

Asosiy xulosaga ko'ra, hissiy konseptlar inson anglashining, jamiyat ruhiyatining muhim qismini tashkil etadi. Ularning lingvokognitiv mohiyati – bu inson ongi, konseptual tafakkur va til orqali yaratiladigan mental jarayonlarning umumlashgan mahsuli. Hissiy holatlarning tilda ochilishi va namoyon bo'lishi esa, aksariyat hollarda, metaforik modellashtirish, ya'ni abstrakt, ichki holatlarni aniq qiyosiy ob'ektlar, real

obrazlar, voqeliklar orqali ko'rsatish asosiga quriladi. Har bir xalq, madaniyat va til o'z hissiy konseptlar atlasiga ega bo'lib, bu atlas tilda turli obraz va model vositalari – metaforalar, frazeologizmlar, ramzlar orqali shakllanadi. Hissiy konseptlarning modellashtirilishi va lingvokognitiv tahlili hozirgi fanda nafaqat nazariy, balki amaliy, psixologik va madaniy tadqiqotlar uchun ham dolzarb ahamiyatga ega bo'lib, jamiyat va insonni yetuklikka yetaklashning asosiy manbai hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Xudoyberganova D. Lingvokulturologiya terminlarining qisqacha izohli lug'ati. – Toshkent: Turon zamin ziyo, 2015. 24, 25-betlar.
2. Sh. Safarov Kognitiv tilshunoslik, – Jizzax, 2006, 11-bet.
3. Mahmudov N. Tilning mukammal tadqiqi yo'llarini izlab ... // O'zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 2012. - № 5.
4. Nurmonov A. Ovrupoda umumiy va qiyosiy tilshunoslikning maydonga kelishi // Nurmonov A. Tanlangan asarlar. 2-jild. –Toshkent: Akademnashr, 2012.
5. Nurmonov A. Sepir-Uorfning lingvistik nisbiylik nazariyasi haqida mulohazalar / O'zbek tilshunosligining dolzarb masalalari. –Toshkent, 2011. – №5.
6. Nurmonov A., Sobirov A., Yusupova Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili // Akademik litsey va kasb-hunar kollejlarning II bosqich talabalari uchun darslik. – T., 3013.
7. Xudayberganova D. Matnning antroposentrik tadqiqi. Monografiya. – Toshkent: Fan.. 2013